

**DIDAKTIKA -PEDAGOGIKANING TA'LIM NAZARIYASI**

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Boshlang'ich ta'lim 2-kurs talabasi

Adhamova Fotimahon Atabek qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim mazmuni, ta'limning takomillashib borishi, ta'lim jarayoniga yangi nazariy va amaliy yondashuvlarni olib kirish, shaxsning rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va ongli faoliyatini shakllantirishga oid fikr va mulohazalar keng yoritilgan. Shuningdek, didaktika-ta'lim nazariyasining predmeti, vazifalari, asosiy kategoriyalari bayon qilinadi. Didaktikaning vazifalari sifatida ta'lim jarayonlarini tashkil etish, takomillashtirish, o'quv jarayonini umumiy qonuniyatlarini aniqlash keltiriladi. Ta'lim jarayonini asosiy kategoriyalari- o'qitish, o'rganish, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, mazmun, metod, vosita, va natija tushunchalari ilmiy tarzda izohlab beriladi.*

Annotation: *This article extensively covers the content of modern education, the continuous improvement of the educational system, and the introduction of new theoretical and practical approaches into the educational process. It also discusses ideas and considerations related to the development of an individual's personality, independent thinking, and conscious activity. In addition, the subject, tasks, and main categories of didactics — the theory of education — are explained. The tasks of didactics include organizing and improving educational processes and identifying the general patterns of the learning process. The main categories of the educational process — teaching, learning, knowledge, skills, abilities, competence, content, method, means, and result — are scientifically interpreted.*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматривается содержание современного образования, процесс его совершенствования, а также внедрение новых теоретических и практических подходов в образовательный процесс. Освещаются идеи и мнения, связанные с*



развитием личности, формированием самостоятельного мышления и сознательной деятельности. Кроме того, раскрываются предмет, задачи и основные категории дидактики — теории образования. К задачам дидактики относятся организация и совершенствование образовательных процессов, а также определение общих закономерностей учебного процесса. Основные категории образовательного процесса — обучение, изучение, знание, умение, навык, компетенция, содержание, метод, средство и результат — объясняются с научной точки зрения.

Kalit so'zlar: didaktika, didaktikaning vazifalari, kategoriyalari, o'rgatish, o'rganish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ta'lim natijasi

Key words: Didactics, functions of didactics, categories of didactics, teaching, learning, education, knowledge, skill, proficiency, competence, learning outcome.

Ключевые слова: Дидактика, задачи дидактики, категории дидактики, обучение, изучение, образование, знание, навык, умение, компетенция, результат обучения.

Didaktika — bu pedagogika fanining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, ta'lim va o'qitish jarayonining nazariy asoslarini o'rganadi. U ta'limning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarini ilmiy jihatdan asoslaydi hamda o'quvchilarga bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni samarali tarzda egallashga yordam beradi. Didaktikaning asosiy maqsadi-ta'lim jarayonini takomillashtirish, uni samarali va mazmunli tashkil etishdir. Shu bois didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini, o'quvchilarning bilish faoliyatini, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadi. Didaktikaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim jarayonining maqsad va mazmunini aniqlash;
- o'qitish metodlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish;
- ta'lim natijasini baholash mezonlarini belgilash.



Didaktika atamasining so'zma-so'z tarjimasini "ta'lim nazariyasi" ma'nosini anglatadi. Didaktika "yunoncha" so'zdan olingan bo'lib, "didacticos"-o'rgatish, o'qitish ma'nosini beradi. Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan. Didaktika nomi ostida u fanni nazariy va metadologik asoslarini tadqiq qiladigon ilmiy sohani tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida "Buyuk didaktika" asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy "hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati" deb tushuntirdi. Komenskiy har bir bola ta'lim olishi lozimligini uqtiradi, umumta'lim deganda xotin qizlarning ham tahsil olishini ko'zda tutadi. Komenskiyning fikricha, tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iborat bo'lib, uni aqliy, axloqiy va diniy tarbiya bilan amalga oshirish mumkin. U bolaga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun yosh xususiyatini hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Komenskiy bolalarning o'qish yoshini ona maktabi (tug'ilgandan 6 yoshgacha), xalq maktabi (6-12 yosh), gimnaziya (12-18 yosh), akademiya (18-24 yosh) kabi bosqichlarga bo'ladi. Komenskiy pedagogikasi mohiyati o'qitishni bola yoshi, bilim darajasi, ruhiy holatiga uyg'un holda tashkil etishdan iborat. Uning bu karashlari „Buyuk didaktika“ asarida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda ko'rsatmalilik, onglilik, izchillik kabi didaktik tamoyillar ahamiyati nazariy jihatdan asoslab berilgan. Komenskiy jahon ta'limi tarixida birinchi bo'lib ta'limning sinf-dars tizimini ishlab chiqdi, ta'lim beriladigan vaqtning davomiyligini, bilim oladigan o'quvchilar sonini, yoshini belgiladi. Darsning rejalashtirish, maqsadga muvofiq olib borish, ta'lim beriladigan vaqtning o'quv yili, choraklar hamda o'qish kunlariga ajratish yollarini ko'rsatdi. Ta'tillar va ularning davomiyligi, kundalik va yillik o'quv soatlari miqdori'ni belgilab berdi. Uning pedagogik qarashlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlarni aks ettiradi. 1)O'qitish-qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning o'zaro tartiblangan harakati. 2)O'rganish -anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar



asosida xulq-atvori va faoliyatining yangi shakllarining egallash jarayoni. 3)Ta'lim-o'qitish jarayonida egallanadigon bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi. 4)Bilim-ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigon inson g'oyalari yig'indisi. 5)Ko'nikma-egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatidagi ifodasi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash. 6)Malaka-avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi. 7)Kompetensiya-egallangan bilim, ko'nikma, va malakalarni kundalik kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati. 8)Maqsad-o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi. 9)Mazmun-o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, faoliyat va fikrlash usullari tizimi. 10)Metod-o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish yo'li. 11)Vosita-o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigon obyekt. 12)Natija-o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarni amalga oshganlik darajasi.

Ta'lim tamoyillari-ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga qarab bir qancha bosqichlarga bo'linadi:

Ta'limni insonparvarlashtirish-uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirishdir. Shaxsning rivojlanish va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo'shiluvi va madaniyatni o'zlashtirish hamma-hammasi so'ngi yillarda sezilarli shakllandi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi esa Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Ta'limda ilmiylik tamoyili-o'quvchining



o'quv materialidagi qonuniyatlarini aks ettirishi, tushunish, va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi va o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, isbotlash, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'limning fundamentalligining ahamiyati shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorgarlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. U yuksak intellectual salohiyat, fikrlash layoqatini tadqiqotchilik ko'rinishida bo'lishi, bilimlarni doimiy ravishda to'ldirib borishiga aytiladi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishini talab etadi. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamal rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bogliq. Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili- o'qitish jarayoni sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A. Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak-deb ta'kidlaydi u agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilar bilan o'rganilsin". Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarini eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa-25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida,



ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65% gacha ortadi. Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda. Ta'lim jarayonida quyidagi tamoyillar ustuvor xarakter kasb etadi: ijtimoiy-g'oyaviylik; onglik va faollik; ilmiylik va tushunarlik; ko'rgazmalilik; mustahkamlik; fundamentallik va amaliy yo'nalganlik; tabiat bilan uyg'unlik; ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi; insonparvarlik; oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi; pedagogik hamkorlik.

Xulosa: Zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki o'quv jarayonining markazida o'quvchi shaxsining intellektual, ma'naviy va kasbiy rivoji turadi; shu bois didaktika nafaqat bilim berishga, balki kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Didaktikaning kategoriyalari- ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vosita va natijalar-o'quv faoliyatining yaxlit tizimini tashkil etadi va ular o'rtasi o'zaro bog'liqlik ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Shuni aytish mumkinki, didaktika zamonaviy ta'lim tizimining nazariy asoslari va amaliy jarayonini belgilovchi ilmiy yo'nalish bo'lib, uning qonuniyati va tamoyiliga asoslangan holda, ta'lim jarayonini sifatli va mustahkam kompetensiyasini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jadid adabiyoti namoyondalari: M.Behbudiy va boshqalar.-T.: Yangi asr avlodi, 2015.
2. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. - T.: Sharq, 2014.
3. N. Ataeva va boshqalar. "Umumiy pedagogika". -T.: "Fan va texnologiya" 2015.
4. O.U. Avlaev, S.N. Jo'raeva, S.R. Mirzaeva. "Ta'lim metodlari" T.: "NAVRUZ" 2017.